

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

4-2023

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

O.T.Tursunov, F.R.Holboev	
Qashqadaryo viloyatining aholi zich joylashgan hududlarida tarqalgan <i>Rodentia</i> turkumi vakillarining ekologik holati.....	117
B.M.Sheraliyev, D.E.Urmonova, O.S.Azamov	
<i>Cottus spinulosus</i> kessler, 1872 (Teleostei: Cottidae) populyatsiyalari orasidagi genetik farqlanish.....	120
F.N.Xabibullayev, M.M.Yunusov	
Farg'ona vodiysida turli xil genotipdagi asalarilardan to'plangan asalning kimyoviy tarkibi	125
U.I.Obidjanov	
Biologiya o'qitish metodikasi kursi «Hayvonlar» bo'limi” infuzoriya-tufelka” mavzusi bo'yicha laboratoriya ishlarini takomillashtirish	129

GEOGRAFIYA

B.B.Eshquvvatov	
O'rta Zarafshon konusimon yoyilma landshaft komplekslari.....	133
Y.Karimov, Q.Yarashev	
Sirdaryo viloyatida tuproq sho'rliги sizot suvlari sathi va minerallashuvio'zgarishini o'rganish usullari	139
R.T.Pirnazarov	
To'g'onli ko'llar va ularning genezisi haqida.....	144

ILMIY AXBOROT

M.M.Xolmatova	
Talabalarda gigiyenik madaniyatini rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari.....	150
R.R.Mamatov	
Gerta Myuller asarlarining badiiy xususiyatlari	156
R.U.Abdullazizova	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida olam rangli-lisoniy manzarasini shakllantirishning samaradorligi	156
R.U.Abdullazizova	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida olam rangli-lisoniy manzarasini shakllantirishning samaradorligi	159
A.A.Mirzayev	
Ibn Arabiyoning tasavvufiy-irfoniy qarashlarida “Vahdat ul-vujud” konsepsiysi tahlili	163
L.K.Karshibayeva, H.E.Egamqulov	
Sirdaryo viloyatining demografik vaziyati va uning geografik jihatlari.....	166
A.A.Yo'idoshev	
O'zbekistonda ta'lif-tarbiya sohasidagi islohotlar strategiyasi.....	171
S.Kunduzaliyeva	
Dars jarayonlarida mediyata'lidan foydalanishning ahamiyati	174
N.R.Eshchanova	
Nafs tarbiyasida tasavvuf ilmining ahamiyati	178
M.B.Radjabova	
O'zbekistonda turar-joy masalasining tarixiy-huquqiy asoslari va davlat tomonidan tartibga solinish asoslari	182
S.Isroiljonov, V.A.Karimov	
Talabalarni jismoniy salomatlik ahvolini darajasi	186
D.I.Umirzakova	
Bo'lajak xorijiy til o'qituvchilarining tolerantlik tafakkurini “Yumshoq ko'nikmalar” asosida rivojlantirish mazmuni	190
K.N.Murodov	
Sport kurashida sportchilarining kuch chidamliligini rivojlantirish va musobaqa faoliyati samaradorligini oshirish texnologiyasi	196
Q.Sh.Omonov, N.A.Abdullayeva	
Oziq-ovqat mahsulotlarini kishi sog'ligiga ta'siri aks etgan maqollarning lingvomadaniy tahlili	203
Sh.N.Nurova	
Ibn Sino ta'lifotida inson masalasi va insoniy xislatlar to'g'risida	206
Z.N.Usmonov	
Sog'lom bo'lish uchun och qolish	209

**BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIDA OLAM RANGLI-LISONIY MANZARASINI
SHAKLLANTIRISHNING SAMARADORLIGI**

**EFFECTIVENESS OF FORMING A COLOR-LINGUISTIC VIEW OF THE WORLD IN
PRIMARY CLASS STUDENTS**

**ЭФФЕКТИВНОСТЬ ФОРМИРОВАНИЯ ЦВЕТО-ЯЗЫКОВОГО ПРЕДСТАВЛЕНИЯ О
МИРЕ У УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ**

Abdullahizova Rohatoy Usmonaliyevna¹

¹Abdullahizova Rohatoy Usmonaliyevna

— Farg'onan davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya

Ushbu maqolada bolaning til shaxsining o'ziga xos xususiyatlarini rang-barang landshaftda shakllantirish, boshlang'ich sinf o'quvchilarini har tomonlama rivojlanish, shuningdek, yetuk avlod tarbiyasida nutqning boy va benuqson bo'lishingning ahamiyati ko'rib chiqiladi.

Аннотация

В данной статье изучено значение формирования уникальных особенностей языковой личности ребенка при красочном пейзаже, всестороннем развитии учащихся младших классов, а также то, что речь богата и безупречна в воспитании зрелого поколения.

Abstract

In this article, it has been studied that it is important to form the unique characteristics of the child's linguistic personality with a colorful landscape, the comprehensive development of primary school students, and the fact that speech is rich and flawless in the education of a mature generation

Kalit so'zlar:boy nutq, benuqson nutq, tafakkur, ruhiy rivojlanish, mustaqil fikrlash.

Ключевые слова: насыщенная речь, безупречная речь, мышление, умственное развитие, самостоятельное мышление.

Key words: rich speech, flawless speech, thinking, mental development, independent thinking

KIRISH

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining har tomonlama rivojlanishi, umuman, barkamol avlod tarbiyasida nutqning boy va benuqson bo'lishi muhim ahamiyatga ega. O'quvchining nutqi bilan birga, tafakkuri ham taraqqiy etadi. Bu jarayon o'z vaqtida to'g'ri tashkil etilsa, maxsus sharoit va muhit yaratilsa, o'quvchining har tomonlama yetuk bo'lib o'sishiga zamin hozirlanadi.

Bolaning ruhiy rivojlanishi — ijtimoiy moslashishi, tafakkurining o'sishida nutq juda muhim rol o'yinaydi. So'zamol, nutqi ravon bolada yoshligidayoq mustaqil fikrlash, o'ni kelganda, o'z fikrini himoya qila olish, mulohaza yuritish qobiliyati shakllansa, nutqida nuqson bo'lgan yoxud so'z zaxirasi rivojlanmagan bolalarda, aksincha, tortinchoqlik, odamovilik, fikrini erkin bayon qila olmaslik kabi sifatlar rivojlanadi.

NATIJA VA MUHOKAMA

O'qituvchi o'quvchilarni o'z fikrlari va his-tuyg'ularini ifodalash uchun ranglarni tanlashda ijodiy tajribaga ega bo'lishi kerak. Bu bolalarning tasavvurini faollashtiradi. Ammo bu etarli emas: agar aniq bilim bo'lmasa, "hissiy farovonlik" darajasidan o'tgan bola bunday qiyin yoshda yangi, murakkabroq vazifalarga tayyor bo'lmasligi mumkin[1]. Rang bolaning his-tuyg'ulariga ta'sir qiladi, badiiy faoliyat jarayonida ishtirot etadi, badiiy didning shakllanishiga ta'sir qiladi. Shuning uchun go'zallik va rang ta'mi tuyg'usini rivojlantirish muhimdir. Bolani badiiy savodxonlikka o'rgatishda bolalar idrokining bevositaligini ta'minlash kerak - bu o'quvchida rangni badiiy idrok etishni rivojlantirishga imkon beradi[2]. Rang kombinatsiyalarining turlari sezilarli hissiy va estetik ta'sirga ega bo'lib, bu bolalarga atrofdagi dunyoning go'zalligini boshqaradigan tabiiy qonunlarni ochib beradi[3].

Maktab davri kognitiv funktsiyalarning jadal rivojlanishi, hissiy-pertseptiv, aqliy, mnemonik va boshqalar bilan tavsiflanadi. Sezgi funktsiyalaridagi yosha bog'liq o'zgarishlar turli xil sezuvchanlik ko'rsatkichlarining intensiv dinamikasida ifodalanadi: vizual, eshitish, taktil, tebranish va boshqalar

qiyosiy yosh rejasida o'rganilgan barcha turlar uchun sezuvchanlik hayotning ushbu davrida tezlashtirilgan va bir vaqtning o'zida sezgirlikning notejis o'sishi, ayniqsa differential bilan tavsiflanadi. Akromatik ob'ektlarning yorqinligiga nisbatan ko'zning o'ziga xos sezuvchanligi juda sezilarli darajada oshadi. 16 yoshida u olti yoshli bolalardan 2,5 baravar ko'p. L. A. Shvartsning fikriga ko'ra, o'ziga xos rang sezgirligi ham yosh bilan sezilarli darajada oshadi. Birinchi sinf o'quvchilari bilan taqqoslaganda, uchinchi sinf o'quvchilari uchun o'rtacha 45% ga, beshinchi sinf o'quvchilari uchun esa 160% ga oshadi.

Uch xil rangning qo'shilishidan xohlagan rangni hosil qilish mumkin. Xalqaro kelishuvga binoan, 3 asosiy rang tanlab olingan: qizil, sariq va havo rang. Rangli televideeniye, rangli fotografiya va boshqalarning asosida 3 xil rang aralashmasi yotadi.

Ko'p hollarda bolalar o'zlar qo'llgan so'z ma'nolarini qanchalik muhimligini tushunmaydilar. Masalan, rang bildiruvchi leksik birliklarning ma'nosini ifodalanayotgan rang bilan ma'no jihatdan mos yoki mos emasligini ba'zan ajratmaydilar. Ma'lum fikrni ifodalashda bolalar tilda mavjud so'z yasash modellari bilan birga okkozinal so'z yasash usulini ham qo'llaydilar. (oqish, ko'kish, ko'kimir, ...) bolalar ranglarni qanday yasaydi...

Dissertasiya tadqiqoti kichik maktab yoshidagi o'quvchilarni borliqdagi ranglarni tanishi, o'zbek tilidagi mavjud rangli lisoniy atamalarnilarini bilishi, rangni bildiruvchi leksemalarlarni o'z o'rniда to'g'ri ishlatsi bilan bog'liq bo'lgan ko'nikmani rivojlantirishga mo'ljallangan tajriba-sinov ishlarini 3 bosqichda ishlab chiqdik.

Tadqiqotning maqsadi kichik maktab yoshidagi o'quvchilar ongida rang bildiruvchi leksemaldardan to'g'ri foydalanishni o'rgatishni takomillashtirishdan iborat. Tadqiqotning vazifalari: lingvorangli qiyosiy tahlil asosida rang bildiruvchi so'zlarning o'zbekcha va ruscha muqobillari aniqlashtirilgan; ingliz tilidagi matnlarni o'qishda o'rganilayotgan til yoki ona tilidagi rang bildiruvchi so'z tufayli yuzaga keladigan til ichki hamda tillararo interferensiya hodisalarini aniqlash; mashqlar majmuida inglizcha rang bildiruvchi so'zlardan foydalanilgan leksikografik materiallarni taqdim qilish; o'quvchilarda inglizcha,ruscha rang bildiruvchi so'zlarning semantik maydonidan foydalanish ko'nikmalarini shakkllantirishga qaratilgan mashqlar majmuini ishlab chiqish; rang bildiruvchi so'zlarni o'z ichiga olgan mashqlar va o'quv topshiriqlari samaradorligini tekshirish maqsadida tajriba-sinov ishlarini o'tkazish. Tadqiqotning predmeti rang bildiruvchi so'zlar qatnashgan matnlarni o'qishda rang bildiruvchi beksemalarni o'rgatishning mazmuni, metodlari va vositalari.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot maqsadiga erishish va qo'yilgan vazifalarning yechimini topish uchun pedagogik kuzatuv, qiyosiy tahlil, tajriba-sinov, pedagogik monitoring, so'rovnoma, matematik-statistik tahlil qilish va umumlashtirish usullaridan foydalanildi

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat: O'zbek tilidagi matnlarni o'qish asosida rang bildiruvchi leksemalarning tipik murakkabliklari bo'yicha lingvorang tushunchasini o'rgatish takomillashtirilgan; rang bildiruvchi so'zlar asosida olamning lisoniy manzarasini yaratish,o'qish bo'yicha tushunish, qabul qilish va o'zlashtirish misolida aniqlashtirilgan. Tadqiqotning amaliy natijasi quyidagilardan iborat: boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqida o'zlar bilagan holda okkozianal yasalgan rang bildiruvchi ba'zi noodatiy so'zlar ham uchradi. Masalan: yulduzrang (1-maktab 4-sinf) 2 nafar o'quvchida,olov-yashil, pum pushti, yaltiroq, odamrang (1-maktab 4-sinf), yaltiroq-sariq qo'yiq rang,suyuq rang,yashil aralash oq,ko'k aralsh oq (Oltiariq 2-IDUM 4-sinf), (Alvon, Burul, Bug'doyrang, Gulgun, Nimrang, Nilufarrang, Oqish, Ola, Qoramtil, Sarg'imir, Sarg'ish, To'q, Zarhal, Zafaron, Zumrad, Shaftolirang, Shaffof) 17 ta rang bildiruvchi leksemalardan foydalanmasliklari,lekin "O'zbek tilining izohli lug'at"ida berilmagan (odamrang, nosrang, olmarang, to'q daraxt rang, yorqinrang, oqsariq,oqqora, yog'ochrang, tanarang, ultrabinafsha, olmosrang, yaltiroq, yulduz rang, oynarang qahvarang gunafsharang kabi) leksemalardan foydalanishlari, shuningdek o'quvchilar nutqida ba'zi rang bildiruvchi leksemalar chet tillariga mansubligi (fioletviy, aranjivuy, siniy, seriy, malochniy, bardoviy,salativiy, goluboy karichniviyl,) ularning tarjimasidan foydalanmasliklari aniqlandi. . Tadqiqot natijalarining ishonchliligi Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tadqiqotdagi nazariy yondashuvlarning rasmiy manbalardan tanlab olingani, ishlab chiqilgan o'qitish metodikasi samaradorligining matematik-statistik tahlil usullari yordamida aniqlanganligi, xulosa va tavsiyalarning o'qitish amaliyotiga tatbiq etilganligi hamda olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlangani bilan asoslanadi.

ILMIY AXBOROT

Tadqiqotning olib borilishi:tajriba-sinov ishlari 3 bosqichda turli oylarda tashkil qilindi va o'tkazildi.

1- bosqich " Qiziqarli savollar jamlanmasi " nomli so'rvonoma asosida turli savollar orqali o'quvchilarga murojat qilindi. 2-bosqich "O'quvchilar nutqida qo'llaniladigan ranglar" nomli tadqiqotning "Sizga qanday ranglar yoqadi" savoli yuzasidan o'quvchilar o'zlariga yoqqan va bilish darajasidan kelib chiqqan holda javob yozishlari belgilab qo'yildi. 3-bosqich 3-4 sinflar o'rtasida o'tkazildi."Men yoqtirgan gullar" "Men yoqtirgan sabzavot" mavzulari bo'yicha o'quvchilar o'z fikrlarini yozma yozma bayon qildilar.Pedagogik tajriba-sinov ishlari 2021-2022 o'quv yilida Farg'ona viloyatida:Farg'ona shahridagi 1-, Farg'ona tumanidagi 22-, Quvasoy shahridagi 2-maktablarning boshlang'ich sinflarida hamda Farg'ona tumani Vodil qishlog'idagi 1-, Oltiariq tumanidagi 2-IDUM boshlang'ich sinf o'quvchilari o'rtasida olindi.

Olib borilgan tadqiqot jarayonida:

Oltiariq tuman 2-IDUM 4-sinf 30 nafar o'quvchi,

Farg'ona tuman 2-IDUM 2-sinf 55 nafar o'quvchi (2 ta sinf kesimida),

Farg'ona tumani Oqbilol qishlog'i 22-o'rta maktab 2-sinf 31 nafar o'quvchi. Quvasoy shaharchasi 2-maktab 1-sinf 40 nafar o'quvchi,

Farg'ona shahar 1-o'rta maktab 2,-3,-4-sinflar(5 ta sinf kesimida) 117 nafar, jami 273 nafar boshlang'ich sinf o'quvchilari qatnashdi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari nutqida "O'zbek tilining izohli lug'at"ida berilgan 43ta rang bildiruvchi leksemadan 27 hil rang bildiruvchi leksema ishlatilib kelinishi ma'lum bo'ldi.

Ishlab chiqilgan meto'dik tizim,turli metod, shakllarini, vositalarni o'z ichiga oladi.

Birinchi - izlanuvchi-ta'kidlovchi bosqichda boshlang'ich sinf o'quvchilarining olam ranglilisoniy manzarasini bilish uchun metodik adabiyotlari va boshlang'ich ta'lim tizimida foydalaniladigan darsliklar o'rganilib tahlil qilindi. Tahlil natijalariga ko'ra 2021-2022 o'quv yilida 1-sinf amaldagi darsliklarida rang bildiruvchi leksemalar jadvali ishlab chiqildi.(Ilovalarda berilgan(3.1 ilova))1-sinf amaldagi darsliklari soni (ingliz tilidan tashqari) 8 ta bo'lib, alifbe, ona tili va o'qish savodxonligi, matematika, texnologiya, tabiiy fanlar, musiqa, tarbiya, tasviriy san'at ushbu darsliklarda 14 hil rang bildiruvchi leksemadan foydalanilgan.Shuningdek 3-sinf darsliklari ham tahlil qilinib,rang bildiruvchi leksemalar jadvali ishlab chiqildi (ilovada berilgan(3.2 ilova)).Tahlil natijalariga ko'ra 3-sinf amaldagi darsliklar soni (rus va ingliz tilidan tashqari) 8 ta bo'lib; ona tili, o'qish, matematika, tabiatshunoslik, tarbiya, musiqa, texnalogiya, tasviriy san'at darsliklaridan iborat.Berilgan darsliklarda 34 hil rang bildiruvchi leksemadan foydalanilgan.Yashil rangi darsliklarning 7 tasida uchradi,qora,qizil, oq, sariq ranglari 5 ta darslikda uchradi.Bundan ko'rinish turibdiki yashil, qora, qizil, oq, sariq rang bildiruvchi leksemalar darslik orqali o'quvchi nutqiga faol olib kiritilgan.Lekin 1 ta darslikda uchragan rang bildiruvchi leksemalar ham bor bular; yam-yashil, ko'm-ko'k, binafsharang, ola-bula, yoquti rang, qoracha, kumushrang, sap-sariq jigarrang, ko'kish, zarg'aldoq, malla, moviy, qirmizi, siyohrang, alvonrang, sarg'ish, nim pushti kabi.

" Qiziqarli savollar jamlanmasi " nomli so'rvonoma asosida turli savollar orqali o'quvchilarga murojat qilindi.So'rvonoma natijalariga ko'ra boshlang'ich sinf o'quvchilari nutqida qizil,pushti,yashil,sariq ranglari ko'p qo'llanilar ekan.

QIZIQARLI SAVOLLAR JAMLANMASI SO'RVNOMASI

- 1.Sizga qaysi bolalar jurnali yoqadi?
- 2.Nima uchun shu jurnal yoqadi?
- 3.Qanday rasmlari bor?
- 4.Rasmlarda nimalar tasvirlangan?
- 5.Ular qanday ranglarda bo'yalgan?
- 6.Sizga qaysi rang ko'proq yoqadi?
- 7.Nima uchun?
- 8.Qolgan ranglar-chi yoqmaydimi?
- 9.Surat chizayotganingizda qaysi rangdan ko'proq foydalanasiz?
- 10.Nima uchun
- 11.Sizga qaysi ko'rsatuvlar yoqadi?
- 12.Bu ko'rsatuv nima uchun yoqadi?
- 13.Boshlovchingning kiyimi qanday rangda bo'ladi?
14. Boshlovchingning sochlari qanday rangda edi?

15. Sizga qaysi multfilm yoqadi?
16. Nima uchun?
17. Qahramoningiz qanday kiyinadi?
18. Sochini rangi qanday?

Innovatsion ta`lim sharoitida boshlang'ich sinf o'quvchilarining olam rangli-lisoniy manzarasini shakllantirish bo'yicha o'quv jarayonni tashkil etish va o'tkazish holati tahlil qilindi hamda uni ta`lim-tarbiya jarayonidagi ahamiyati o'rganildi. Innovatsion ta`lim sharoitida boshlang'ich sinf o'quvchilarining olam rangli-lisoniy manzarasini shakllantirish bo'yicha o'quv jarayonni tashkil etish va o'tkazish ilmiy-metodik-tashkiliy muammo ekanligi ko'rsatildi.

2-bosqich Tadqiqotning izlanuvchan bosqichida innavatsion ta`lim sharoitida boshlang'ich sinf o'quvchilarining olam rangli-lisoniy manzarasini shakllantirish asosida tashkil etish va o'tkazish uchun "O'quvchilar nutqida qo'llaniladigan ranglar" nomli tadqiqotning "Sizga qanday ranglar yoqadi" savoli yuzasidan o'quvchilar o'zlariga yoqqan va bilish darajasidan kelib chiqqan holda javob yozishlari belgilab qo'yildi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'tkazilgan "Sizga qanday ranglar yoqadi" savoli yuzasidan o'tkazilgan tajriba-sinov ishining umumlashmasi hisoblanadi. Bunda boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqida qo'llaniladigan rang bildiruvchi leksemalar berilgan.

XULOSA

So'rovnoma natijalari shuni ko'rsatadiki, ko'pchilik o'qituvchilar rang bildiruvchi leksemalarni aniq va ravshan holatda o'zbek izohli lug'atidagi nomi bilan qo'llamasligi ma'lum bo'ldi. Buning natijasida boshlang'ich sinf o'quvchilar rang bildiruvchi leksemalarni boshqa tillardagi (rus) nomi bilan atab kelmoqda. O'zbek tilining izohli lug'atida 43 ta rang bildiruvchi leksema bo'lib bulardan boshlang'ich sinf o'quvchilar nutqida faol qo'llaniladigan va nofaol qo'llaniladigan rang bildiruvchi leksemalarni aniqladik.

Shunga ko'r'a jadval ishlab chiqildi (ilovada berilgan (3.4 ilovada)) boshlang'ich sinf o'quvchilarining sinflar kesimida umumiyligi soni berilgan bo'lib faol qo'llaniluvchi rang bildiruvchi leksemalar haqida tushunchaga ega o'quvchilar soni "+" belgisi bilan rang bildiruvchi leksemalar haqida tushunchaga ega emas o'quvchilar soni "--" belgisi bilan belgilab qo'yildi.

3-bosqich 3-4 sinflar o'rtasida o'tkazildi. "Men yoqtirgan gullar" "Men yoqtirgan sabzavot" mavzulari bo'yicha o'quvchilar o'z fikrlarini yozma bayon qildilar. Bunda o'quvchilar erkin fikrlar gul yoki sabzavotning belgilarini sanash bilan bir qatorda uning rangiga ham urg'u berib o'tdilar. Olam rangli lisoniy manzarasini hayollarida chizgan holda uni qog'ozga chiroyli so'zlar bilan yozib berdi

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Rahim, U. (2021, May). SOCIAL FACTORS OF THE INTERDEPENDENCE OF MENTAL AND PHYSICAL ACTIVITY. In Archive of Conferences (Vol. 25, No. 1, pp. 6-7).
2. Akbarova, Z. (2020, December). BETWEEN CONCEPT AND CONCEPT IN LIN
3. Akbarova, Z. A. (2020). THE STUDY OF THE CONCEPT OF "LANGUAGE CARRIER" IN LINGUISTICS. In INTERNATIONAL SCIENTIFIC REVIEW OF THE PROBLEMS OF HISTORY, CULTURAL STUDIES AND PHILOLOGY (pp. 14-19)
4. Akmaljonovna, A. Z. (2020). THE IMPACT OF LINGUISTIC CONSCIOUSNESS ON THE WORLD IMAGE. ANGLISTICUM. Journal of the Association-Institute for English Language and American Studies, 9(5), 26-38.
5. Akmaljonovna, Z. A., & Usmonalievna, A. R. (2022). ANALYSIS OF VIEWS ON THE FORMATION OF THE LINGUISTIC LANDSCAPE OF THE WORLD. ANGLISTICUM. Journal of the Association-Institute for English Language and American Studies, 11(1), 11-18.